



SOCIAL FACTORS OF WOMEN'S EMPLOYMENT IN MODERN SOCIETY

Sitora Yusubbayevna Rahmonberdiyeva

Researcher at the Family and Gender Research Institute

s.rahmonberdiyeva@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: women's employment, women's labor, social factors, gender stereotypes, labor market, education level, family traditions, economic activity, social inequality, rural and urban employment, remote work, women's economic independence.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: This article analyzes the main social factors influencing women's employment in modern society from socio-philosophical and economic perspectives. The study examines the relationship between women's employment and education level, family traditions, childcare responsibilities, gender stereotypes, working conditions, as well as differences between rural and urban areas. In addition, the paper highlights the close connection between women's economic activity and processes of social development, social stability, and realization of human potential. The study concludes that women's employment is not only an economic process but also a complex social phenomenon related to social consciousness, value systems, and issues of equal opportunities.

ZAMONAVIY JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINING IJTIMOIIY OMILLARI

Sitora Yusubbayevna Rahmonberdiyeva

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi

s.rahmonberdiyeva@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xotin-qizlar bandligi, ayollar mehnati, ijtimoiy omillar, gender stereotiplari, mehnat bozori, ta'lim darajasi, oilaviy an'analar, iqtisodiy faollik, ijtimoiy tengsizlik, qishloq va shahar bandligi, masofaviy ish, ayollar iqtisodiy mustaqilligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda xotin-qizlar bandligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiy omillar ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollar bandligining ta'lim darajasi, oilaviy an'analar, bolalar

parvarishi, gender stereotiplari, mehnat sharoitlari hamda qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi tafovutlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ayollarning iqtisodiy faolligi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijasida xotin-qizlar bandligi nafaqat iqtisodiy jarayon, balki jamiyatdagi ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va teng imkoniyatlar masalasi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa ekani asoslab beriladi.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Ситора Юсуббаевна Рахмонбердиева

Исследователь

Научно-исследовательского института «Семья и гендер»

s.rahmonberdieva@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: занятость женщин, женский труд, социальные факторы, гендерные стереотипы, рынок труда, уровень образования, семейные традиции, экономическая активность, социальное неравенство, занятость в сельской и городской местности, дистанционная работа, экономическая независимость женщин.

Аннотация: В данной статье анализируются основные социальные факторы, влияющие на занятость женщин в современном обществе, с социально-философской и экономической точек зрения. В исследовании рассматривается взаимосвязь занятости женщин с уровнем образования, семейными традициями, проблемами ухода за детьми, гендерными стереотипами, условиями труда, а также различиями между сельскими и городскими территориями. Кроме того, освещается тесная связь экономической активности женщин с процессами общественного развития, социальной стабильности и реализации человеческого потенциала. В результате исследования обосновывается, что занятость женщин является не только экономическим процессом, но и сложным социальным явлением, связанным с общественным сознанием, системой ценностей и вопросами равных возможностей.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va bandligi muhim ijtimoiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ayollarning mehnat jarayonida faol ishtiroki

nafaqat oila farovonligini oshirish, balki jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, xotin-qizlar bandligi masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq etilmoqda.

Ayollar bandligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular jamiyatning tarixiy shakllangan qadriyatlari, ta'lim tizimi, oilaviy munosabatlar, gender rollari hamda mehnat bozoridagi sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, ta'lim darajasi ayollarning kasbiy imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lsa, oilaviy an'analar va bolalar parvarishi bilan bog'liq majburiyatlar ko'pincha ularning mehnat bozorida faol qatnashishiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, jamiyatda saqlanib qolayotgan gender stereotiplari, ish joylaridagi sharoit va mehnat haqidagi tengsizlik holatlari ayollar bandligi muammosining murakkabligini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar ham ayollar bandligining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Qishloq joylarda ish o'rinlarining cheklanganligi, norasmiy bandlikning yuqoriligi hamda ijtimoiy infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi ayollarning iqtisodiy faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli xotin-qizlar bandligi masalasini ijtimoiy omillar asosida kompleks tarzda tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada ayollar bandligiga ta'sir etuvchi muhim ijtimoiy omillar, xususan, ta'lim darajasi, oilaviy an'analar, bolalar parvarishi muammosi, gender stereotiplari, ish joylaridagi sharoit, mehnat haqidagi tengsizlik hamda qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi tafovutlarning bandlik jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlar bandligiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni yoritish maqsadida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqishga asoslangan umumiy ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida turli ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar va ijtimoiy tadqiqot natijalari tahlil qilinib, ayollar bandligiga ta'sir etuvchi omillarning mazmuni va ularning jamiyat hayotidagi o'rni umumlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida xotin-qizlar bandligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy sharoitlar, oilaviy muhit, ta'lim darajasi, mehnat bozori sharoitlari hamda hududiy tafovutlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Mavzuga oid turli qarashlar solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ayollar bandligining zamonaviy ijtimoiy muammolari yuzasidan umumiy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida bandlik masalasi keng ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida baholanib, jamiyatdagi ijtimoiy

munosabatlar, gender rollari va iqtisodiy omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalari umumiy tahlil asosida yoritildi. Natijada xotin-qizlar bandligiga ta'sir etuvchi omillarning ijtimoiy mohiyati hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tizimli tarzda talqin qilindi.

Natijalar. Xotin-qizlar bandligi jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayollarning mehnat bozoridagi faol ishtiroki ko'p jihatdan ularning ta'lim darajasi, oilaviy muhit, mavjud ijtimoiy qarashlar hamda mehnat sharoitlari bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda ayollarning iqtisodiy faolligi tobora ortib borayotgan bo'lsa-da, bandlik jarayonida hali ham bir qator ijtimoiy to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Ayollarning bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri ta'lim darajasi hisoblanadi. Ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi ayollarning kasbiy malakasi oshishiga, yangi kasb va yo'nalishlarni egallashiga imkon yaratmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega ayollar xizmat ko'rsatish, ta'lim, tibbiyot, boshqaruv va tadbirkorlik sohalarida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda ayollar egallagan mutaxassisliklar mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi yoki ish beruvchilar tomonidan erkak xodimlarga ustunlik berilishi ularning bandlik imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Natijada oliy ma'lumotga ega bo'lgan ayollar ham ba'zan o'z mutaxassisligiga mos kelmaydigan yoki vaqtinchalik ish faoliyati bilan shug'ullanishga majbur bo'lishmoqda[1].

Oilaviy an'analar va jamiyatda shakllangan ijtimoiy qarashlar ham ayollar bandligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab oilalarda ayolning asosiy vazifasi uy-ro'zg'or ishlari va farzand tarbiyasi bilan bog'lab talqin qilinadi. Bu holat ayollarning mehnat faoliyatida uzluksiz ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Ayrim hollarda ish faoliyatini davom ettirish istagidagi ayollar oilaviy majburiyatlar va jamiyatning an'anaviy qarashlari o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'ladilar. Bu esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar parvarishi bilan bog'liq muammolar ayollarning mehnat bozoridagi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar bog'chalari hamda bolalarni vaqtincha parvarish qilish imkoniyatlarining yetarli emasligi ko'plab ayollarni ish faoliyatidan vaqtincha chekinishga majbur etadi. Ish faoliyatida yuzaga keladigan uzilishlar esa ayollarning kasbiy tajribasi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim ayollar esa ish va oila majburiyatlarini bir vaqtning o'zida olib borish qiyinligi sababli norasmiy yoki vaqtinchalik ish bilan shug'ullanishni ma'qul ko'radilar. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bolalar parvarishi bilan bog'liq majburiyatlar 708 million ayolni jahon miqyosida mehnat bozoriga kirishdan cheklaydi[2].

Jamiyatda mavjud gender stereotiplari ham ayollar bandligi masalasida muhim omil bo'lib qolmoqda. Ko'plab kasblar hali ham erkaklar uchun mos yoki ayollar uchun maqbul degan

qarashlar asosida baholanadi. Natijada ayollar ko'pincha kam haq to'lanadigan, ijtimoiy mavqei nisbatan past yoki xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilmoqda. Texnika, qurilish, sanoat yoki yuqori boshqaruv lavozimlarida ayollar ulushining kamligi ham gender stereotiplari saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

Ish joylaridagi sharoitlar ham ayollarning bandlik jarayonida faol ishtirok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Moslashuvchan ish vaqti, qisqartirilgan ish kuni, masofadan ishlash imkoniyatlarining mavjudligi ayollar uchun ish va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Aksincha, qat'iy ish tartibi, ijtimoiy kafolatlarning yetarli emasligi yoki xavfsiz mehnat muhitining yo'qligi ayollarning ish faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli ko'plab ayollar qulayroq sharoitga ega bo'lgan norasmiy yoki mavsumiy ishlarni tanlashga majbur bo'lmoqda. Mehnat haqidagi tengsizlik muammosi ham ayollar bandligi bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bir xil malaka va tajribaga ega bo'lgan erkak va ayol xodimlar o'rtasida ish haqi miqdorida farqlar saqlanib qolishi ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda ayollar pastroq maosh evaziga ishlashga majbur bo'lishmoqda, bu esa ularning mehnat bozoridagi mavqeini zaiflashtiradi[3].

Qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi farqlar ham ayollar bandligining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shahar hududlarida sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalari keng rivojlanganligi sababli ayollar uchun ish o'rinlari ko'proq mavjud. Qishloq joylarda esa ish o'rinlari asosan qishloq xo'jaligi va mavsumiy mehnat bilan cheklanib qolmoqda. Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining cheklanganligi ayollarning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini qisqartirmoqda. Shu sababli qishloq hududlarida ayollar ko'pincha norasmiy mehnat bilan shug'ullanib, ularning bandligi rasmiy statistikada aks etmay qolmoqda.

Shu tariqa, ayollar bandligi jamiyatdagi ta'lim, oilaviy muhit, ijtimoiy qarashlar, mehnat bozori sharoitlari va hududiy tafovutlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Ushbu omillarning o'zaro ta'siri ayollarning iqtisodiy faolligi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilab bermoqda.

Muhokama. Xotin-qizlar bandligi masalasini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki mehnat bozoridagi o'zgarishlar bilan izohlash yetarli emas. Bu masala, avvalo, insonning jamiyatdagi o'rni, mehnatning mazmuni va ijtimoiy adolat haqidagi qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayolning mehnat jarayonida ishtiroki jamiyatning ayol shaxsiga qanday qarashi, uning imkoniyatlarini qanday baholashi hamda shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat qanday qurilgani bilan bevosita aloqador.

Zamonaviy jamiyatda mehnat nafaqat moddiy farovonlik manbai, balki shaxsning o'zini namoyon qilishi, ijtimoiy mavqe topishi va o'z qadrini his etishining muhim omiliga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ayollarning bandlik masalasi insonning jamiyatda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish huquqi bilan bog'liq masalaga aylanadi. Agar ayolning mehnat qilish imkoniyati cheklansa, bu faqat iqtisodiy muammo emas, balki insonning o'z salohiyatini to'liq namoyon eta olmasligi bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy muammodir.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat namoyon bo'ladi: jamiyatda ayolning roli ko'pincha ikki yo'nalishda baholanadi — u ham oila a'zosi, ham jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida ko'riladi. Bu ikki vazifa o'rtasidagi muvozanatni saqlash esa har doim ham oson kechmaydi. Ko'plab ayollar bir vaqtning o'zida ham kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, ham oilaviy majburiyatlarni bajarishga harakat qiladi. Bu esa insonning ichki ruhiy dunyosida ma'lum ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Aynan shu holat bandlik masalasini shunchaki iqtisodiy jarayon emas, balki ijtimoiy-ruhiy jarayon sifatida ham ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bandlik masalasini chuqurroq tahlil qilganda, jamiyatdagi qadriyatlar tizimining o'zgarib borayotgani ham ko'zga tashlanadi. Avvallari ayolning asosiy vazifasi uy va oila bilan bog'lab tushunilgan bo'lsa, hozirgi davrda ayolning ijtimoiy hayotdagi faolligi tobora ortib bormoqda. Biroq qadriyatlar tizimidagi bu o'zgarish hamma hududlarda va barcha ijtimoiy qatlamlarda bir xil tezlikda kechmaydi. Natijada jamiyatning ayrim qismlarida eski qarashlar saqlanib qolayotgan bo'lsa, boshqa joylarda yangi ijtimoiy rollar shakllanmoqda. Bu esa jamiyat ichida muayyan qarashlar to'qnashuvini yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ayollar bandligi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi bilan ham uzviy bog'liq. Ayol iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lsa, oiladagi qarorlar qabul qilish jarayonida ham faolroq ishtirok etadi, bu esa oilaviy munosabatlarning yanada muvozanatli shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiy faolligi ortishi jamiyatda kambag'allik darajasining kamayishi va oila farovonligining oshishiga ham olib keladi. Muhokamada yana bir muhim falsafiy masala ko'zga tashlanadi: mehnatning inson hayotidagi ma'nosi. Mehnat faqat daromad manbai emas, balki insonning jamiyatga foydali ekanini his etishi, o'z qadrini anglashiga xizmat qiluvchi omildir. Shu sababli ayollarning mehnat bozorida to'laqonli ishtirok etishi ularning ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Shu bilan birga, bandlik jarayonida ayollar duch kelayotgan muammolar jamiyatda mavjud yashirin tengsizliklarning ham ifodasidir. Ko'pincha bu tengsizlik ochiq ko'rinishda emas, balki an'analar, stereotiplar yoki mehnat sharoitlari orqali namoyon bo'ladi. Bunday holat esa ayollarning imkoniyatlari rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amalda to'liq ro'yobga

chiqmasligiga sabab bo'ladi. Zamonaviy jamiyat sharoitida texnologiyalar rivoji, masofaviy ish shakllarining kengayishi ham ayollar bandligiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa mehnatning an'anaviy shakllari qayta ko'rib chiqilayotganini ko'rsatadi. Endilikda ish joyi faqat korxona yoki ofis bilan cheklanib qolmay, uy sharoitida ham kasbiy faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu holat ayollar uchun yangi imkoniyatlar ochish bilan birga, mehnat va shaxsiy hayot o'rtasidagi chegaralarning ham o'zgarishiga olib kelmoqda[4].

Umuman olganda, xotin-qizlar bandligi masalasi jamiyatning inson qadri, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'liq. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki jamiyatning ma'naviy yetukligi va ijtimoiy ongining rivojlanish darajasini ham aks ettiradi. Shu sababli ayollar bandligi masalasini chuqur o'rganish jamiyatning kelajak taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xotin-qizlar bandligi masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy jarayonlar, balki jamiyatning ijtimoiy ong darajasi, qadriyatlar tizimi va inson salohiyatiga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi[5]. Ayollarning mehnat jarayonidagi faol ishtiroki jamiyatning har bir a'zosiga teng imkoniyat yaratish, shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kengroq ijtimoiy masalani anglatadi.

Bandlik jarayonida ayolning o'рни haqidagi qarashlar tarix davomida o'zgarib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy jamiyatda ayol faqat oilaviy muhit bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu jarayon ayolning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash bilan birga, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning ham yangi shakllarda rivojlanishiga olib kelmoqda. Shu bois ayollar bandligi masalasini hal etish jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, mehnat insonning o'zligini namoyon etish va jamiyatda o'z o'rnini topishining muhim omillaridan biridir. Ayolning mehnat faoliyatida erkin ishtirok etishi uning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlabgina qolmay, balki shaxs sifatida o'z qadrini anglashiga, ijtimoiy hayotda faolroq pozitsiyani egallashiga ham imkon yaratadi. Shu sababli ayollar bandligi masalasi insonning o'z salohiyatini to'liq amalga oshirish huquqi bilan bog'liq muhim ijtimoiy-falsafiy masala sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda bandlik sohasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, texnologik rivojlanish, yangi ish shakllarining paydo bo'lishi ayollar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda jamiyatda saqlanib qolayotgan an'anaviy qarashlar, gender stereotiplari va ijtimoiy cheklovlar hali ham ayollarning to'liq iqtisodiy faolligiga to'sqinlik

qilmoqda. Bu esa bandlik masalasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ongini o'zgartirish bilan bog'liq murakkab jarayon ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, xotin-qizlar bandligi masalasini hal etish jamiyatda teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va inson salohiyatiga hurmat tamoyillarini qaror toptirish bilan uzviy bog'liqdir. Ayollarning mehnat jarayonida faol ishtiroki jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlash bilan birga, inson qadri va shaxs erkinligini e'tirof etuvchi jamiyat qurish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdelatti, H. ., Elhadary, Y. ., & Ahmed, A. . (2025). The impact of higher education on female labor force participation in Saudi Arabia. *International Journal of Innovative Research and Scientific Studies*, 8(2), 3883–3894.
2. International Labour Organization. (2024, February 13). Unpaid care work prevents 708 million women participating in the labour market. <https://www.ilo.org/resource/news/unpaid-care-work-prevents-708-million-women-participating-labour-market>
3. G'aniyev Baxtiyor Zulfikor o'g'li, & Dilmurotova Oyishaxon Ulug'bek qizi. (2025). Mehnat bozorida ayollar: o'zbekiston mehnat unimdorligi potensialini ochish. *Mehnat Iqtisodiyoti Va Inson Kapitali*, 4(2), 157–165.
4. Kley, S., & Reimer, T. (2023). Exploring the gender gap in teleworking from home: The roles of worker's characteristics, occupational positions and gender equality in Europe. *Social Indicators Research*, 168, 185–206.
5. Hanson, S.E., & Murakami, E. (2010). Women in Transportation. *Public roads*, 73, 10-15.